



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

FarDU.
ILMIY XABARLAR

**IJTIMOYIY GUMANITAR
FANLAR**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



1/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya) VANG JIANSIN. (Xitoy)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
--	---	--

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR			
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	YULDASHEV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	QOSIMOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.b.f.d(PhD)	MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.prof.
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,dots
QAMBAROV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
AHRORQULOVA A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)		

Muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar: Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlarini tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari	210
A.Xamdamiyov	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214
B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Adygезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках ГУУАМ	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar)	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar)	281
X.P.Jurayev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari	285

V.A.SHISHKINNING SHAXSIY ARXIVIGA BIR NAZAR

ВЗГЛЯД НА ЛИЧНЫЙ АРХИВ В.А. ШИШКИНА

A LOOK AT THE PERSONAL ARCHIVE OF V.A. SHISHKIN

Boltayev A'zam Homidovich¹¹Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Sharq davlat muzeyi fondida saqlanayotgan V.A.Shishkin shaxsiy arxivi haqida so'z boradi. Muzeyda olimning dala tadqiqot materiallari, qayd qilingan kundalik daftarlari uning farzandlari tomonidan taqdim qilinganligi va kundaliklarda O'rta Osiyo arxeologiyasi masalalari va Buxoro vohasi arxeologiyasiga oid ma'lumotlar jamlangani qayd qilingan. Shuningdek, olim amalga oshirgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida monografiya, risola va to'plamlar nashr etganligi haqidagi ma'lumotlar bayon qilinadi.

Аннотация

В этой статье хранящий Государственный фонд Востока Музей рассказывает о своем личном архиве В.А.Шिशкина. Музей утверждает, что дневниковые записи ученого, в которые были занесены материалы полевых исследований, были предоставлены его детьми, и в дневниках обобщена информация о масасах Центральноазиатской археологии и археологии Бухарского оазиса. Также зафиксировано, что ученый опубликовал монографии, брошюры и сборники в результате проведенных им археологических экспедиций.

Abstract

In this article, the Museum, which preserves the State Fund of the East, tells about its personal archive of V.A.Shishkin. The museum claims that the diary entries of the scientist, in which field research materials were recorded, were provided by his children, and the diaries summarize information about the masas of Central Asian archaeology and the archeology of the Bukhara oasis. It is also recorded that the scientist published monographs, brochures and collections as a result of his archaeological expeditions.

Kalit so'zlar: Buxoro, O'rta Osiyo, arxeologiya, kundalik, dala tadqiqotlari, kolleksiya, muzey, arxiv, fond, toponimika, tarixiy topografiya.

Ключевые слова: Бухара, Центральная Азия, археология, дневник, полевые исследования, коллекция, музей, архив, фонд, топонимия, историческая топография.

Key words: Bukhara, Central Asia, archeology, diary, field research, collection, museum, archive, foundation, toponymy, historical topography.

KIRISH

Tarixiy hujjatlar arxivlarning ahamiyati benihoya katta bo'lib, ular orasida arxeologik arxivlar o'ziga xos toifani tashkil qiladi. Ko'pincha, dala tadqiqotlari davomida olingan va nashr etilmagan materiallar bir sabab yoki boshqa sabablar bilan bu yerda saqlanadi. Bunday materiallarni arxiv kolleksiyalari shaklida saqlash va ularni nashr etish arxeologik meros muammosini hal qilishning muhim qismidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Vasiliy Afanasevich Shishkinning ilmiy ijodiy faoliyati, arxeologik tadqiqot ishlari, ilmiy qarashlari, uning ijodida Buxoro vohasi tarixi va arxeologiyasi, qolaversa, vatanimiz tarixi masalalari alohida o'rin egallaydi. Olimning ilmiy merosidagi o'lka tarixi masalari uning shaxsiy arxivi materiallari asosida atroflicha yoritildi. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin: 1.Mustaqillikgacha bo'lgan davrdagi tarixiy ilmiy adabiyotlar. 2.Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

1999-yili Moskvadagi Sharq davlat muzeyi (Государственного музея Востока (ГМВ)) arxivi tarkibida yangi fond tashkil etildi. Bu fond "Arxeologik materiallar fondi" deb nomlandi. Uning asosiy tarkibini dastlab ikkita katta hujjatlar to'plami tashkil etgan:

1) Markaziy Osiyo arxeologik ekspeditsiyasining 1980-1990-yillarida O'zbekistonning turli yodgorliklari bo'yicha tadqiqot materiallari;

2) Sharq davlat muzeyiga sovg'a qilingan ashyolar, ya'ni O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asr arxeologiyasi hamda madaniyati tarixi mutaxassislardan Galina Vasilyevna Shishkinaning

shaxsiy arxivi. Bu hujjatlar taxminan 250 dona saqlav birligini tashkil etadi. Ular orasida G.V.Shishkinaning turli yodgorliklarga, asosan Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligiga oid uzoq yillik tadqiqot materiallari hamda otasi mashhur arxeolog Vasiliy Afanasyevich Shishkinning (Vasiliy Afanasyevich Shishkin 1898-yil 29-dekabrda Rossiyaning Vyatskaya guberniyasida tugʻilgan. 1966-yil 18-oktabrda Samarandda vafot etgan.) ilmiy merosi, materiallari (Markaziy Osiyo tarixiy va meʼmoriy yodgorliklarni oʻrganishga qatrilgan) saqlanadi. Shuningdek, bu arxeologik ashyolar fondi 2000-2003-yillarda sanʼatshunos Viktoriya Georgiyevna Dolinskaya tomonidan sovgʻa qilingan shaxsiy arxiv materiallari bilan toʻldiriladi[6].

V.A.Shishkinning shaxsiy arxiv hujjatlari haqida gapirganda, uning dala tadqiqot kundaliklarini alohida taʼkidlash lozim. Dala tadqiqot kundaliklari turli oʻlcham va hajmdagi umumiy daftarlardan iborat boʻlib, ular muallif tomonidan raqamlangan va sarlavhalar qoʻyilgan, baʼzilarida esa sahifalarni koʻrsatadigan mundarija jadvali aks ettirilgan.

Bundan tashqari, daftarlarga alohida koʻrsatgichlar mavjud boʻlib, uni olimning oʻzi roʻyxatini tuzgan va xulosalab bergan. Koʻrsatgichlarga koʻra, olimning koʻp yillik ilmiy faoliyati 74 ta kundalik-daftarga jamlangan. Shundan, 37 dala tadqiqot kundaliklari Sharq davlat muzeyi (ГМБ) arxivining arxeologiya fondida saqlanadi.

Bu dala tadqiqot kundaliklari V.A.Shishkin tomonidan ekspeditsiyalar paytida yaratilgan. Kundaliklarda deyarli kundalik yozuvlar, kun davomida olimning juda katta miqdordagi ishini, shu jumladan qidiruv yoki qazishmalarning tavsiflarini, ekspeditsiya rahbariyatining topshiriqlarini, mahalliy hokimiyat va ilmiy jamoatchilik vakillari bilan aloqalari aks ettirilgan. Shuningdek, kundalikda yuzaga keladigan ilmiy fikrlar, gʻoyalar, munozarali masalalarni qayd etgan boʻlib, yozma manbalar, adabiyotlar va arxeologik materiallar bilan ishlash jarayonida oʻz tasdigʻini topgan fikrlar yoki yangiliklar ham qayd qilingan. Tadqiqot sahifalaridan V.A.Shishkinning ilmiy va ijodiy ishlarining borishini aniq kuzatishimiz mumkin. Olimning dala tadqiqot kundaliklari uning kelajakdagi koʻplab maqolalari va kitoblari uchun asos boʻlib xizmat qilgan.

Biroq, Vasiliy Afanasyevich faqat puxta oʻylangan va puxta ishlab chiqilgan xulosalarini nashr etganligi sababli, koʻplab nashr etilmagan ishlari kundaliklarda saqlanib qolgan.

Bugungi kunga qadar faqat ushbu kundalik daftarlarining sahifalarida V.A.Shishkinning ilmiy ish metodologiyasi, madaniy yodgorliklar bilan ishlash texnikasi, oʻlchovlar va eskizlarning tafsilotlari, oʻrganilayotgan obʼyektlarning aniq tarixiy va topografik tasviflarining qayd qilinishi uning ishonchli hamda qimmatli manbaga aylantiradi. Buni nafaqat Oʻzbekiston tarixi va arxeologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarning bir turi, balki dala tadqiqot materiallarining alohida metodlari, jonli tili, muallifning shubhasiz ilmiy isteʼdodi va uning rassom sifatidagi qobiliyatining yuksakligi hamda fidokorona mehnatining oʻziga xos aniqligida koʻrish mumkin.

V.A.Shishkinning 1934-1940, 1947, 1949-1950-va 1952-1953-yillardagi Buxoro-Soʻgʻdi hududidagi ekspeditsiyasi va Zarafshon arxeologiyasi razvedka ishlari haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kundaliklari ilmiy jamoatchilikka katta qiziqish uygʻotadi. Bu dala tadqiqoti daftarlarida Buxoro vohasidagi yuzdan ortiq arxeologik obidalar oʻrganildi va maʼlumotlari jamlandi.



Dala taqiqoti kundaliklarida Buxoro vohasi tarixiy topografiyasini tiklash uchun olimning mashaqqatli mehnatini koʻrish mumkin. U vohani sugʻorish tarixiga oid yozma manbalarni oʻrganish, qadimgi nomlarni va eng qadimgi qatlamini aniqlash bilan birga yozma manbalardagi toponimlarni solishtirish ishlarini ham amalga oshirgan.

TARIX



monografiyasi (1963 y.), “Buxoro vohasini arxeologik o’rganish tarixidan” va “Varaxsha shahri va uning atrofi” deb nomlangan to’plamlar nashr etildi. Biroq, olimning ko’plab materiallar nashr etilmagan va ilmiy jamoatchilikka ma’lum emas, chunki Buxoro vohasidagi yerni o’zlashtirish paytida, sug’orish va qurilish ishlari vaqtida ko’plab tarixiy obidalar vayron qilingan yoki tiklab bo’lmaydigan darajada keltirilgan. Shu joylar haqidagi ma’lumotlarni olimning shaxsiy arxividan topish mumkin.

Varaxshadagi tadqiqotlarga e’tibor qilsak, V.A.Shishkin ekspeditsiyasi (1930-1950 yy.) va Sharq Davlat muzeyining O’rta Osiyo arxeologik ekspeditsiyasi (1980-1990 yy.) tadqiqot ishlarining keng ko’lamligiga qaramay, o’n yillar davomida Buxoro vohasining arxeologik joylari o’zbek, rus va so’nggi yillarda chet elik mutaxassislarning diqqatini jalb qilishda davom yetmoqda. Ular orasida 1934-yilda arxeologlar tomonidan tekshirilgan Zarafshon vodiysi manzilgohlari yaqinidagi qabristonlarni o’rganish bo’yicha olib borilgan ishlarni ta’kidlash lozim: A.Yakubovskiy va O.V.Obelchenkolarining Qiziltepa, shahri-Vayron va Hazara manzilgohidagi, Mahandaryo deltasida O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ekspeditsiyalari tosh asri yodgorliklarini aniqlash bilan shug’ullangan: Ya.G’ulomov boshchiligidagi Mahandaryo arxeologik otryadi va Buxoroda A.Muhamadjonov boshchiligida Zarafshonning quyi va o’rta qismlari sug’orilishi, shuningdek, Buxoro vohasining g’arbiy va shimoli-g’arbiy qismida arxeologik yodgorliklar to’plamini tuzish bo’yicha katta ishlar amalga oshirildi [2].

Hozirgi kunga qadar Sh.Odilov, J.Mirzaahmedovlar tomonidan Varaxsha yodgorligining turli nuqtalari, Buxoro vohasidagi qadimiy sug’orish yerni va 1934-yilda boshlangan Kampirdevorini o’rganish ishlari davom etmoqda.

2011-yildan beri O’zbekiston-Amerika qo’shma ekspeditsiyasi xodimlari J.Mirzaahmedov va S.Shtarke tomonidan 1930-yillarda V.A.Shishkin olib borilgan dala tadqiqot yo’nalishlari bilan bevosita bog’liq holda arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda[4].

Shuningdek, S.N.Yurenyev fondlaridagi maktublarni tadqiq etish jarayonida olimning o’z davridagi mashhur arxeolog va o’lkashunos V.A.Shishkin bilan ham o’zaro yozishmalar olib borilganligi ma’lum bo’ldi. Maktublarning matni bilan tanishish jarayonida ikki olimning Buxoroda arxeologik izlanishlar olib borish, topilmalarni o’rganish hamda ular asosida ilgari surilgan ilmiy xulosalar to’g’risida fikr almashilganligi aniqlandi [3. 5.].

V.A.Shishkinning Sharq davlat muzeyi arxivida saqlanayotgan bir nechta dala tadqiqot kundaliklarida Buxoro vohaning yirik tarixiy yodgorligi, Varaxshada olib borgan qazishmalari haqidagi yozuvlar hamda ushbu aholi manzilgohi hududining tadqiqot va topografik materiallari tashkil etadi. Bunga qo’shimcha ravishda uchta albomda qazish va arxeologik topilma matnlari hamda fotosuratlar jamlangan bo’lib, bu vohaning arxeologik ma’lumotlarini to’ldiradi.

1980-yillar o’rtalarida V.A.Shishkinning arxeologik tadqiqot ma’lumotlari O’zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Buxoro arxeologik ekspeditsiyasining Respublika arxeologik yodgorliklari to’plamini tuzishga, shu jumladan, Varaxsha massivi (arxeologik) yodgorliklari to’plamini tuzish bo’yicha ishlariga asos bo’ldi[1].

1930-1950-yillari V.A.Shishkin boshchiligidagi ekspeditsiyaning Buxoro vohasi hududida, shu jumladan, Varaxsha massivida olib borilgan qazishmalari va izlanish materiallari asosan nashr etilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida “Varaxsha”

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, V.A.Shishkin Buxoro vohasi bilimdoni. U ko'plab yodgorliklarni o'rgangan olim, nafaqat Buxoro shahrini balki uning atrofidagi tarixiy yodgorliklarni o'rgangan. Olimning har bir yodgorlikni sinchiklab o'rganishi jarayonida ularni o'z kundaligiga qayd qilishi va ularning suratini chizishi uning yuqori istedod sohibiligidan dalolatdir. Hozirgi kunda bu dala tadqiqot materiallarining Sharq davlat muzeyi arxivida saqlanishi muzey fondini boyitish bilan bir qatorda, kolleksiya hujjatlarning qimmatini yuqoriligini bildiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адылов Ш.Т. Западные окраины Бухарского оазиса на ранних стадиях обживания (VI в. до н.э. – III в. н.э.) (По материалам исследований в Баштепинской зоне Варахшинского массива) //ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент, 2002. – С.73.
2. Археологические работы на новостройках Узбекистана. – Ташкент, 1990. - С.141,142
3. Болтаев А.Ҳ. Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда С.Н.Юренив ёзишмаларининг ўрни //Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – Тошкент. 2018. № 1. 5-9-бетлар.
4. Болтаев А.Ҳ. Бухоро музейи – тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 70 б.
5. Болтаев А.Ҳ. С.Н.Юренив ва В.А.Шишкин ёзишмаларида ўлка тарихи масалалари // “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқот методлари ва методологиясининг долзарб вазифалари” мавзuidaги Республика X илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент, 2018. №10. 75-78-бетлар.
6. Никулина О.С. Архивные материалы по истории и археологии Узбекистана в Государственном музее Восток //Археология Центральной Азии: архивные материалы. Том II. – Самарканд: МИЦАИ 2015. – С.5-28.